Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320723

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Xulosa: O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishda investitsiyalardan samarali foydalanish, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish zarur.Maqolada keltirilgan ma'lumotlarga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida investitsiya jarayonlari mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga va moliyalashtirish usullarini takomillashtirishga qaratilgan. 2018-2021 yillar davomida qishloq xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalarning o‘sishi, jumladan, xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushining ortishi, sektorda ijobiy o‘zgarishlarni ta'minlaydi.Biroq, qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarish jarayonida hal etilmagan muammolar ham mavjud. Masalan, asosiy fondlarni yangilash sekin sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda, bu esa ishlab chiqarilgan mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, yuqori narxlarning o‘zgaruvchanligi va tarmoqning investitsiya imkoniyatlarining cheklanganligi ham muammolar sirasiga kiradi.Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirish zarur. Shuningdek, diversifikatsiya jarayonlarini amalga oshirish orqali ishlab chiqarishni kengaytirish va samaradorlikni oshirish mumkin. Natijada, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishda investitsiyalardan samarali foydalanish nafaqat iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydi, balki aholi farovonligini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Bu jarayonlar O‘zbekistonning global bozorlar bilan raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarishda investitsiyalardan samarali foydalanish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi farovonligini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonlar O‘zbekistonning global iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi va kelajakda qishloq xo‘jaligi sohasida yangi imkoniyatlarni ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmon.

2. Karimov, J. (2021). "Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo‘jaligini rivojlantirish". O‘zbekiston iqtisodiyoti va tadbirkorlik jurnali.

3.Murodov, A. (2020). "Qishloq xo‘jaligida investitsiyalarning ahamiyati va samaradorligi". O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti.

4. Zaripov Azamat Djurayevich “Qishloq xo‘jaligidagi investitsiya jarayoni, jahon xiznatlari bozori va hududni rivojlantirishda xizmat ko‘rsatishning roli” maqolasi.

MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARI VA ULARNING AMALDAGI HOLATI

Abdumuminova Zaxro
Guliston davlat universiteti “Raqamli iqtisodiyot va innotsiyalar” fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasining mahalliy byudjet daromadlari va ularning amaldagi holatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda mahalliy byudjetning daromad manbalari, ularning tarkibi va ulushlari o‘rganilib, mavjud muammolar hamda ularni hal qilish yo‘llari haqida fikr bildirilgan. Mahalliy byudjet va

Published: 23.12.2024
Cite this article: Abdumuminova Zaxro (2024). Mahalliy byudjet daromadlari va ularning amaldagi holati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320723
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

xarajatlari xar bir viloyat kesimini o‘rganilib chiqilib tahlil qilingan, mavjud muammolar hamda ularni hal qilish yo‘llari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: davlat byudjeti, soliq, yuridik va jismoniy shaxs, daromad, xarajat, mahalliy xokimiyat organlari, mahallliy soliqlar, qaytarilmaydigan pul tushumlar

Kirish

Davlat budjet daromadlari soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga berilgan budjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to‘lash hisobidan to‘lovlar hamda qonunchilikka muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Bizga ma’lumki, yaqin yillardan boshlab Davlat budjet daromadlari va xarajatlari ijrosi qonun bilan mustahkamlab kelinmoqda. Shu sababdan oxirgi uch yillik qonun hujjati ma’lumotlarini tahlil qilganimizda quyidagi xulosaga keldik. Davlat fuqorolar oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun mahalliy budjetlarning yildan-yilga moliyaviy holati yaxshilanib borayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetning, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlari belgilangan normativlarga muvofiq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, aylanmadan olinadigan soliq, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, avtotransport vositalarini sotib olganlik va O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im hamda boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

“Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjet, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetdan belgilangan xarajatlar amalga oshiriladi”.

Shu o‘rinda davlat budjet daromadlari singari, xarajatlar qismi bilan ham ta’nishib chiqamiz. Uch yillik qonun hujjati ma’lumotlarini tahlil qilganimizda quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin. Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Davlat budjet daromadlari singari xarajatlai ham yildan yilga ortib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, Davlat o‘z funktsiya va vazifalarini bajarishda ajratilayotgan mablag‘lar fuqorolar oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun ishlatilayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjet, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlari haqida ma’lumot[76] (mlrd so‘m)

1-jadval

/r	Hududlar nomi	2022	202 3	2023-yilni 2022-yilga nisbatan farqi	2023-yilni 2022-yilga nisbatan farqi foizda

[76]O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabr O‘RQ-657 “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabr O‘RQ-742 “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabr O‘RQ-813 “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi qonuni.

.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 356,2	2 703,3	347,10	15%
.	Andijon viloyati	3 059,4	3 802,7	743,30	24%
.	Buxoro viloyati	2 904,0	3 817,2	913,20	31%
.	Jizzax viloyati	1 727,2	2 184,9	457,70	26%
.	Qashqadaryo viloyati	3 483,0	4 561,2	1 078,20	31%
.	Navoiy viloyati	2 186,3	2 993,6	807,30	37%
.	Namangan viloyati	2 903,2	3 713,4	810,20	28%
.	Samarqand viloyati	3 955,8	4 958,8	1 003,00	25%
.	Surxondaryo viloyati	2 466,9	3 042,3	575,40	23%
0.	Sirdaryo viloyati	1 104,5	1 406,1	301,60	27%
1.	Toshkent viloyati	4 378,9	5 866,2	1 487,30	34%
2.	Farg‘ona viloyati	4 242,5	5 437,8	1 195,30	28%
3.	Xorazm viloyati	2 220,6	2 719,2	498,60	22%
4.	Toshkent shahri	6 044,7	7 739,3	1 694,60	28%
Jami		**43 033,2**	**54 946,0**	11 912,8	28%

1-jadval ma’lumotlaridan yana shuni ko‘rishimiz mumkunki, mahalliy budjetimizning daromadlari 2023 yilda esa 2022 yilga nisbatan maxallaiy budjet daromadlari 28 % yoki 11 912.8 mlrd so‘mga oshganini ko‘rishimiz mumkun. Maxalliy budjet daromadlarining eng katta ko‘rsatgichlari hududlar bo‘yicha Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlariga to‘g‘ri kelayotganini ko‘rishimiz mumkun. Eng kam daromadlar bo‘yicha ko‘rsatgichlar esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm va Surxondaryo viloyatlariga to‘g‘ri kelayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjet, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy budjetlarining xarajatlari ijrosi haqida ma’lumot[77] (mlrd so‘m)

2-jadval

/r	**Hududlar nomi**	**202 2**	**202**	**2023-yilni 2022-yilga nisbatan farqi**	**2023-yilni 2022-yilga nisbatan**

[77]O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabr O‘RQ-657 “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabr O‘RQ-742 “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabr O‘RQ-813 “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi qonuni.

			3		farqi foizda
.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 874,2	5 375,7	1 501,50	39%
.	Andijon viloyati	4 741,6	6 608,2	1 866,60	39%
.	Buxoro viloyati	3 346,3	4 463,1	1 116,80	33%
.	Jizzax viloyati	2 551,8	3 469,3	917,50	36%
.	Qashqadaryo viloyati	5 534,3	8 380,2	2 845,90	51%
.	Navoiy viloyati	2 186,3	2 993,6	807,30	37%
.	Namangan viloyati	4 608,0	6 613,3	2 005,30	44%
.	Samarqand viloyati	4 963,8	7 155,1	2 191,30	44%
.	Surxondaryo viloyati	4 453,9	6 291,2	1 837,30	41%
0.	Sirdaryo viloyati	1 777,7	2 492,3	714,60	40%
1.	Toshkent viloyati	4 378,9	5 866,2	1 487,30	34%
2.	Farg‘ona viloyati	5 619,9	7 618,8	1 998,90	36%
3.	Xorazm viloyati	3 067,2	4 160,6	1 093,40	36%
4.	Toshkent shahri	6 044,7	7 739,3	1 694,60	28%
Jami		**57 148,7**	**79 226,9**	22 078,20	39%

2-jadval ma’lumotlaridan shuni ko‘rishimiz mumkinki, davlat budjet daromadlari oshgan sayin xarajatlar ham proporsional ravishda ishib borayotganini ko‘rishimiz mumkun. Yillar kesimida farqlarga nazar soladigan bo‘lsak 2023 yilda 14 ta mahalliy budjetmiz xarajatlarini 2022 yilga nisbatan solishtiradigan bo‘lsak, jami 39% ga yoki 22 078,20 mlrd so‘mga oshganini ko‘rishimiz mumkun. Maxalliy budjet xarajatlari bo‘yicha o‘tgan yilga nisbatan eng katta farqlar Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlariga to‘g‘ri keladi.

Xulosa

Mahalliy hokimiyat organlariga mahalliy soliqlar bo‘yicha daromadlarni shakllantirish, mahalliy budjet xarajatlarini amalga oshirishda ma’lum darajada erkinlik berilishi zarur. Bunday erkinlik berilishi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro amaliyotda mamlakatlar miqyosida mahalliy soliqlar va yig‘imlarning tarkibi turlicha ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, soliq solinadigan ob’ektlar va soliq solinadigan bazalar bo‘yicha ham farqlar kuzatiladi. Xalqaro tajribani o‘rganish orqali milliy amaliyotimiz uchun foydali jihatlarini moslashtirishda yuqorida ta’kidlangan omillarni inobatga olish lozim. Aks holda soliq yuki oshishi va soliq to‘lovchilarga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

2. O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. 2023 yil. 26 dekabr.(o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
3. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2024yil. 13 aprel. (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
4. Kasimova G.A., Xaydarov A. G‘aznachilikning dasturiy komplekslari. Darslik. T:. 2021. «Nihol print OK. 376 b.
5. Mehmonov S.U., Karimova Z.X.,Tursunov A.S. Budjet tizimi. Darslik. –T.: “IQTISOD-MOLIYa”, 2018. -544 b.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabr O‘RQ-657 “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabr O‘RQ-742 “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabr O‘RQ-813 “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat Budjeti to‘g‘risida”gi qonuni.
8. www.lex.uz
9. www.stat.uz
10. www.gov.uz

MAHALLIY BYUDJET XARAJATLARINI SAMARALI BOSHQARISH

Abdumuminova Zaxro Kamoliddin qizi
Guliston davlat Universiteti Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar fakulteti 2-bosqich talabasi
abdumuminovazaxro01@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy byudjet xarajatlarini samarali boshqarish va uni tashkil etishning nazariy jihatlari tahlil qilingan. Bunda mahalliy byudjet xarajatlari tarkibi hamda samarali boshqarish masalalari o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: byudjet xarajatlari, byudjet jarayoni, davlat byudjeti, mahalliy byudjet, xarajatlar rejasi.

KIRISH.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining ijrosi mahalliy byudjetlar xarajatlari qismida o‘z ifodasini topadi. Mamlakatdagi tuman va shaharlarda aholi sonining oshib borishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilishi mahalliy byudjetlar xarajatlarning o‘sishini taqazo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 1-noyabr kuni 2022-yil uchun soliq tushumlari hamda byudjet parametrlari yuzasidan o`tkazilgan yig`ilishda mamlakatimizda inson qadrini ulug`lash, insonlarning hayotini yaxshilash bosh maqsad etib belgilangandi, bu tamoyillar byudjetni shakillantirishda ham bosh mezon bo`lishi zarurligi haqida ham alohida qayd etib o`tildi.

Shuningdek, joriy yilning may oyida Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis palatalarining a`zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda “….biz O`zbekistonni ijtimoiy davlat, deb e`lon qildik. Mamlakatimizda 2200.0 mingdan ziyod oilalar ijtimoiy ko`makka muhtoj. Shu o`rinda bir masalaga e`tibor qaratmoqchiman. Yangilangan Konstitutsiyamizda davlatning ijtimoiy majburiyatlari 3 barobar ko`paytirilmoqda. Buni amalda ta`minlash uchun juda ko`p ishlashimiz zarur.